

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RAXMONOV BEKZOD SHARIBJON O‘G‘LI

YASHIRIN IQTISODIYOTNI ISHSIZLIK DARAJASIGA TA‘SIRINING
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences

Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li

Yashirin iqtisodiyotni ishsizlik darajasiga ta'sirining nazariy asoslarini
takomillashtirish.....11

Рахмонов Бекзод Шарибжон угли

Совершенствование теоретических основ влияния теневой экономики на
уровень безработицы.....25

Rakhmonov Bekzod Sharibjon ugli

Improving the theoretical foundations of the impact of the shadow economy on the
unemployment rate.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RAXMONOV BEKZOD SHARIBJON O‘G‘LI

**YASHIRIN IQTISODIYOTNI ISHSIZLIK DARAJASIGA TA‘SIRINING
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5314 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web- sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Suyun Artikovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mambetjanov Kaxramon Kurbandurdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Obilov Mirkomil Rashidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/2025.27.12.I.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «__»_____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__»_____ kuni tarqatildi.
yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiy rivojlanish tajribasi va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotning hajmi va ko'lami mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi: global miqyosda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi o'rtacha 31–33% atrofida bo'lib, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 50% va undan ham yuqori darajalarga yetadi (Lotin Amerikasi — taxminan 34%, Afrika mamlakatlari — 40%+), bu esa soliq tushumlarining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi¹; natijada davlat byudjeti ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va bandlik dasturlarini moliyalashtira olmaslik bilan yuzlashadi va har yili trillionlab dollarlik soliq yo'qotishlari kuzatiladi, bu esa rasmiy ish o'rinlarining qisqarishi, mehnat unumdorligining pasayishi va investitsion muhitning yomonlashuviga sabab bo'ladi; shuningdek, yashirin sektorda ishlovchi xodimlar rasmiy statistika va ijtimoiy himoyadan chetda qolgani uchun ishsizlik darajasi haqiqiy vaziyatni aks ettirmaydi, mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlar zaiflashadi, natijada ijtimoiy tengsizlik kuchayadi va milliy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi tahdid ostiga tushadi — shuning uchun O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uning hajmini kamaytirish va rasmiy sektorga integratsiyalash strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot ulushining ortishi mehnat unumdorligining pasayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va investitsion muhitning yomonlashuvi orqali iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi; natijada rasmiy sektor korxonalari soliq va mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda qo'shimcha xarajatlarni zimmasiga olishi sababli raqobat muhiti izdan chiqadi, yashirin sektordagi subyektlar esa ushbu majburiyatlardan chetlab o'tib sun'iy ustunlikka ega bo'ladi. Bu jarayon mehnat bozorining nomutanosib rivojlanishiga olib kelib, barqaror va huquqiy jihatdan himoyalangan ish o'rinlarining qisqarishi hamda norasmiy, zaif himoyalangan bandlik shakllarining kengayishi bilan tavsiflanadi; o'z navbatida, bu holat mehnat resurslaridan samarali foydalanishni cheklaydi va inson kapitali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham, ayniqsa xizmat ko'rsatish, qurilish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yashirin bandlikning mavjudligi rasmiy statistikada ishsizlik darajasining to'liq aks etmasligiga hamda iqtisodiy salohiyatni baholashda metodologik noaniqliklarga olib kelmoqda, shu bois yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta'sirini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati va mehnat bozorining barqaror rivojlanishi yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga chambarchas bog'liqdir. Norasmiy bandlikni rasmiylashtirish orqali nafaqat soliq tushumlari ortadi, balki ijtimoiy himoya tizimi kuchayadi va yangi rasmiy ish o'rinlari yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish, uni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish va bu

¹ https://www.ey.com/content/dam/ey-unified-site/ey-com/en-gl/insights/tax/documents/ey-gl-shadow-economy-report-02-2025.pdf?utm_source

borada ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashda yashirin bandlikni kamaytirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular ko'pincha norasmiy sektorda ishlashga majbur bo'ladi va bu ularning ijtimoiy himoyasini zaiflashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-son "O'zbekiston Respublikasida "Yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yashirin iqtisodiyotni ishsizlik darajasiga ta'sirining nazariy asoslari xorijiy mamlakatlar olimlari Yashirin iqtisodiy faoliyatga oid bo'lgan munosabatlarning ilmiy-uslubiy va nazariy jihatlarini xorijlik olimlardan F.Shnayder, A.Dreher, F.Smith, J.Thomas, U.Mazhar, P.Méon, M.Fleming, J.Roman, G.Farrell, A.Rajul, E.Michael, A.Alan, B.Nedra, Y.Boujelbene, V.Born, J.Pfeifer, Y.Liu, H. Feng va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan³.

MDH mamlakatlaridan A.Cherepashkin, A.Komleva, B.Rayzberg, L.Lofovskiy, E.Starodubseva, Y.Naumov, V.Latov, V.Burov, I.Chursina, Y.Kopilova, B.Raxmatov, N.Chernenko va ko'plab olimlar yashirin iqtisodiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan⁴.

² <https://lex.uz/>

³ Schneider F. (ed.). Handbook on the shadow economy. – Edward Elgar Publishing, 2011.; Schneider F., Enste D. H. Shadow economies: Size, causes, and consequences //Journal of economic literature. – 2000. – T. 38. – №. 1. – S. 77-114.; Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?© 2018 International Monetary Fund WP/18/17.; Dreher A., Schneider F. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis //Public Choice. – 2010. – T. 144. – S. 215-238.; Smith, P. (1994), 'Assessing the size of the underground economy: the Canadian statistical perspectives', Canadian Economic Observer, Catalogue no. 11-010, pp. 16-33.; Thomas, J. J. (1999), Quantifying the black economy: "measurement without theory" yet again?, Economic Journal, 109: 381-9.; Mazhar, U. and Méon, P.G., 2017. Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. World Development, 90, pp.89-103.; Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, Journal of International Affairs, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409.; Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, Journal of International Affairs, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409. <http://www.jstor.org/stable/24357758>.; Awasthi, Rajul; Engelschalk, Michael. 2018. Taxation and the Shadow Economy: How the Tax System Can Stimulate and Enforce the Formalization of Business Activities. Policy Research Working Paper;No. 8391. © World Bank, Washington, DC. <http://hdl.handle.net/10986/29603> License: CC BY 3.0 IGO; Auerbach, Alan J. 2017. Demystifying the Destination-Based Cash-Flow Tax. Brookings Papers on Economic Activity 2017: 409-432.; Baklouti, Nedra, and Younes Boujelbene. 2019. Shadow Economy, Corruption, and Economic Growth: An Empirical Analysis. The Review of Black Political Economy, 276-94.; Born, B., and J. Pfeifer. 2014. Policy Risk and the Business Cycle. Journal of Monetary Economics 68: 68-85.; Liu, Y., and H. Feng. 2014. Tax Structure and Corruption: Cross-Country Evidence. Public Choice 162: 57-78.

⁴ А.Черепашкин, А.Комлева. Теневая экономика как угроза экономической безопасности. // Вестник уральского института экономики, управления и права. №1, 2017. С.-13.; Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. – Издательский Дом" Инфра-М", 2004.; Наумов Ю. Г., Латов Ю. В. Экономическая безопасность и теневая экономика. – 2016.; Буров В. Ю. и др. Противодействие теневой экономике и определение ее масштабов:

Yashirin iqtisodiyotni ishsizlik darajasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari o'zbekistonlik olimlardan H.P.Abulqosimov, N.G.Muminov, M.M.Mirzakarimova, A.M.Sadikov G.Alimov, B.Isroilov, M.Pardayev, N.Muminov, B.Turdiyev, B.A.Tagayev, M. Alimov, Sh.Shodmonov, A.Islomov, B.A.Tagayev, M.T.Yaxshiyeva, A.F.Rasulev, B.Berkinov, B.Ibragimov va boshqalarning ilmiy nashrlarida o'z aksini topgan⁵.

Yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu masala hali ham bahsli bo'lib, yetarlicha ilmiy asosda o'rganilmagan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud tadqiqotlar ko'pincha tor doirada, qisman yoki statistik ma'lumotlar bilan cheklangan holda olib borilgan. Shu sababli, mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini tizimli va keng qamrovli tarzda o'rganish zarurati mavjudligi, mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasini pasaytiruvchi ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish, ularni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish yuzasidan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yashirin iqtisodiyot va ishsizlik darajasining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslarini aniqlash, shu yo'nalishda mavjud tadqiqotlarni o'rganish va adabiyotlar sharhini tayyorlash;

yashirin iqtisodiyotning mehnat bozoriga va ishsizlik darajasiga ta'sirini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini tahlil qilish;

institutsional iqtisodiyot va "yashirin kapital" konsepsiyalarini uyg'unlashtirgan holda mehnat migrantlariga huquqiy maqom va "kompetensiya pasporti" berishning rasmiy bandlik va yashirin iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq etish;

ishsizlik darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning ekonometriya usullari orqali tahlilini amalga oshirish;

xorijiy mamlakatlarning yashirin iqtisodiyot va mehnat bozorini tartibga solish tajribasini o'rganish hamda undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

inklyuziv rasmiy bandlikka asoslangan fiskal rag'batlantirish bo'yicha soliq imtiyozlarini joriy etish chora-tadbirlar va yo'nalishlarni belgilash;

отечественный и зарубежный опыт (теория и практика). – федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования"

⁵ "Yashirin iqtisodiyot" o'quv-amaliy qo'llanma. Bojxona instituti (jamoa muallifligida) –T., DBQ BI, 2020, 146- bet. "Xalqaro raqobat siyosati" o'quv qo'llanma T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" 2021, 179-bet ;H.P.Abulqosimov. Yashirin iqtisodiyotning mohiyati, sabablari va oqibatlari, unga qarshi kurash yo'llari; Ekonomika i finansy 2020, 2(134). S. 3-10; N.G.Muminov. Yashirin iqtisodiyotning mohiyati, sabablari va oqibatlari: nazariy yondashuv. Ekonomika i finansy. 2016, 8. S. 2-8; M.M.Mirzakarimova, Sh.Olimjonova, Norasmiy bandlik va uni legallashtirish masalalari. Ekonomika i finansy. 2014, 12. S. 50-60

O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta‘sirini 2030-yilgacha bo‘lgan muqobil prognozlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasini pasaytirishda yashirin iqtisodiyot bilan bog‘liq hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, ishsizlik darajasini pasaytirishda yashirin iqtisodiyotda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “yashirin iqtisodiyot” tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotning rasmiy tartibga solish qoidalarini qasddan yoki institutsional zaiflik natijasida cheklab o‘tadigan, makroiqtisodiy siyosat ta‘sirini buzib ko‘rsatuvchi hamda raqamli platformalar, naqd pul aylanmasi va norasmiy tarmoqlar uyg‘unligida qayta shakllanuvchi ko‘p qirrali iqtisodiy munosabatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

inklyuziv rasmiy bandlikka asoslangan fiskal rag‘batlantirish modeliga ko‘ra, korxonalar tanlov funksiyasida faqat mehnat xarajati va soliq yuki emas, balki inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsientiga bog‘langan soliq imtiyozlarini ham endogenlashtirish orqali “inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsienti” (IFBK)ni joriy etish va uni korxonalar uchun soliq imtiyozlari bilan bog‘lash taklifi asoslangan;

kichik tadbirkorlik, institutsional iqtisodiyot va “yashirin kapital” konsepsiyalarini uyg‘unlashtirgan holda, migratsiyadan qaytgan shaxslar tomonidan to‘plangan inson kapitali va moliyaviy resurslarni norasmiy faoliyat emas, balki soddalashtirilgan soliq rejimi, alohida huquqiy maqom va “kompetensiya pasporti” orqali rasmiy mikrobiznes va kooperatsiya shakllariga konvertatsiya qilish taklifi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasining yashirin iqtisodiyot darajasi ta‘siri natijasida o‘zgarishi VAR ekonometrik modeli asosida 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va rasmiy sektor jozibadorligini oshirishga qaratilgan inklyuziv rasmiy bandlikni rag‘batlantiruvchi fiskal mexanizmlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsienti” (IFBK) asosida korxonalar faoliyatini baholash va ularga differensial soliq imtiyozlari berish tizimini qo‘llash orqali rasmiy bandlikni kengaytirish imkoniyatlari asoslab berilgan;

migratsiyadan qaytgan fuqarolarning inson kapitali va moliyaviy resurslarini rasmiy iqtisodiyotga jalb etish maqsadida soddalashtirilgan soliq rejimi, alohida huquqiy maqom hamda “kompetensiya pasporti” tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy mexanizmlar taklif etilgan;

xizmat ko‘rsatish, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida yashirin bandlikni qisqartirishga qaratilgan institutsional va tashkiliy chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan;

VAR ekonometrik modeli asosida olingan prognoz natijalariga tayangan holda, ishsizlik darajasi va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni inobatga olgan holda 2030-yilgacha bandlik siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur dissertatsiya natijalari va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchliligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul va uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ishsizlikni pasaytirishda yashirin iqtisodiyot muammolarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga kamaytiruvchi ta'sir kanallarini rivojlantirish, hududlarning kompleks chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashirin iqtisodiyotni ishsizlik darajasiga ta'sirining nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "yashirin iqtisodiyot" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotning rasmiy tartibga solish qoidalarini qasddan yoki institutsional zaiflik natijasida cheklab o'tadigan, makroiqtisodiy siyosat ta'sirini buzib ko'rsatuvchi hamda raqamli platformalar, naqd pul aylanmasi va norasmiy tarmoqlar uyg'unligida qayta shakllanuvchi ko'p qirrali iqtisodiy munosabatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi oliy o'quv yurtlarining "Iqtisodiy nazariya" mutaxassisligi magistrleri uchun tavsiya etilgan "Global iqtisodiy rivojlanish" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024 yil 24 maydagi 150-sonli buyrug'i). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda "Iqtisodiy nazariya" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlar shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarda "yashirin iqtisodiyot" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shgan;

Inklyuziv rasmiy bandlikka asoslangan fiskal rag'batlantirish modeliga ko'ra, korxonalar tanlov funksiyasida faqat mehnat xarajati va soliq yuki emas, balki inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsientiga bog'langan soliq imtiyozlarini ham endogenlashtirish orqali "inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsienti" (IFBK)ni joriy etish va uni korxonalar uchun soliq imtiyozlari bilan bog'lash taklifi asoslangan. (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil 3-martdagi 01/00-05/10-2243-sonli xati). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida respublikada

inklyuziv rasmiy bandlik koeffisienti (IFBK)ni hisoblash va uni korxonalariga beriladigan soliq imtiyozlari bilan bog'lash mexanizmi joriy etildi. Natijada rasmiy bandlikni, jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari bandligini kengaytirish korxonalar uchun iqtisodiy jihatdan rag'batlantirildi. Ushbu mexanizm norasmiy bandlikni qisqartirish, mehnat bozorida inklyuzivlikni oshirish hamda fiskal siyosatning manzilliligi va samaradorligini kuchaytirishga xizmat qildi;

Kichik tadbirkorlik, institutsional iqtisodiyot va "yashirin kapital" konsepsiyalarini uyg'unlashtirgan holda, migratsiyadan qaytgan shaxslar tomonidan to'plangan inson kapitali va moliyaviy resurslarni norasmiy faoliyat emas, balki soddalashtirilgan soliq rejimi, alohida huquqiy maqom va "kompetensiya pasporti" orqali rasmiy mikrobiznes va kooperatsiya shakllariga konvertatsiya qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2023-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi 95-bandida "Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan, ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish" orqali ishsizlikni kamayishi sababli uzoq muddatli dastur ishlab chiqish chora-tadbirini belgilashda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil 3-martdagi 01/00-05/10-2243-sonli xati). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, institutsional muhitni mustahkamlash va "yashirin kapital"ni rasmiy iqtisodiy aylanishga jalb etish o'rtasida samarali integratsiyani ta'minlaydi. Mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslar tomonidan to'plangan inson kapitali va moliyaviy resurslarni norasmiy faoliyatdan rasmiy mikrobiznes hamda kooperativ shakllarga yo'naltirish imkoniyati kengayadi. Soddalashtirilgan soliq rejimi, alohida huquqiy maqom va "kompetensiya pasporti" mexanizmlarining joriy etilishi qaytgan migrantlarning iqtisodiy faolligini rasmiylashtirishga, institutsional to'siqlarni kamaytirishga hamda hududiy bandlik va soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi;

Respublikada ishsizlik darajasining yashirin iqtisodiyot darajasi ta'siri natijasida o'zgarishi VAR ekonometrik modeli asosida 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil 3-martdagi 01/00-05/10-2243-sonli xati). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uzoq muddatli istiqbolda yashiring iqtisodiyot natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ishsizlik holatlarini aniqlash siyosat va rivojlanish strategiyalarini optimallashtirish, shuningdek, past ishsizlik darajasini ta'minlovchi rasmiy iqtisodiy tizimlarini shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta mahalliy, 2 ta xalqaro nashrlarda), 2 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 115 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan. Shuningdek, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, shu bilan birga, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yashirin iqtisodiyot va ishsizlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yashirin iqtisodiyot tushunchasi, uning shakllari va mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni yoritilgan. Ushbu bobda yashirin iqtisodiyotning rasmiy ish o‘rinlari va mehnat bozoriga ta‘siri, shuningdek, ishsizlik darajasini oshirish yoki kamaytirishga bo‘lgan mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari, mavzuni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar va yashirin iqtisodiyot bilan ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashning uslubiy asoslari tushuntirilgan.



1-rasm. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot va uning turlari⁶

Mazkur jarayonlarning nazariy asoslarini takomillashtirishda yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o‘rtasidagi ikki tomonlama sabab-oqibat munosabatlarini kompleks yondashuv asosida tadqiq etishni talab etadi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, soliqqa tortish darajasi, davlat nazoratining samaradorligi, biznes yuritish sharoitlari va mehnat bozorining moslashuvchanligi yashirin iqtisodiyot ko‘lamiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ishsizlikni kamaytirish faqat yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan emas, balki norasmiy bandlikni legallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish

⁶ Muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

va mehnat munosabatlarini institutsional jihatdan takomillashtirish orqali ham amalga oshirilishi zarur. Demak, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror bandlikni shakllantirish hamda makroiqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy iqtisodiy tizimning eng murakkab institutsional muammolaridan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan yashirin iqtisodiyot mehnat bozoridagi nomutanosibliklar, rasmiy sektorda ish o'rinlarining yetarli emasligi hamda aholi daromadlarini saqlab qolish ehtiyoji natijasida shakllanadi. Ayniqsa, yuqori ishsizlik darajasi sharoitida iqtisodiy faol aholining bir qismi norasmiy bandlikka o'tishga majbur bo'ladi, bu esa davlat statistikasida real bandlik holatini noto'g'ri aks ettiradi. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot qisqa muddatda aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo'lsada, uzoq muddatda soliq bazasining qisqarishi, mehnat unumdorligining pasayishi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining zaiflashuviga olib keladi. Natijada rasmiy mehnat bozori raqobatbardoshligi susayib, tarkibiy va yashirin ishsizlikning ortishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda mehnat bozorining samarali faoliyati milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Mehnat resurslarining oqilona taqsimlanishi, aholining barqaror daromad manbalariga ega bo'lishi hamda inson kapitalining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim shartidir. Klassik iqtisodiy nazariyalar, xususan, individlarning o'z manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritishi jamiyat farovonligiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozorida ishtirok etuvchi subyektlarning erkin va qonuniy faoliyati umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Biroq, ushbu jarayonlarning izchil kechishi uchun institutsional muhit, huquqiy tartibga solish mexanizmlari hamda ijtimoiy himoya tizimlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishi talab etiladi.

Yashirin iqtisodiyot esa mehnat bozorining ushbu muvozanatini izdan chiqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Norasmiy bandlikning kengayishi natijasida rasmiy ish o'rinlari qisqaradi, soliq tushumlari kamayadi va davlatning ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanadi. Bu esa o'z navbatida ishsizlik darajasining oshishiga va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, globallashtirish va iqtisodiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning salbiy ta'sirini kamaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu sababli, mehnat bozorini tartibga solishda huquqiy bazani takomillashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi va bu orqali iqtisodiy barqarorlik, budjetga soliq tushumlari, ijtimoiy himoya dasturlarining izchil samarador ishlashi, iqtisodiyotdagi jismoniy va huquqiy shaxslar uchun poydevor bo'lin xizmat qiladi.

“Yashirin iqtisodiyot” atamasiga qator olimlar tomonidan izohlar va ta'riflar berilgan.


Quyida shulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Yashirin iqtisodiyotni o'rgangan iqtisodchi olimlar⁷

Olim	Mamlakat	Asosiy mazmuni
Hernando de Soto	Peru	Yashirin iqtisodiyotning sababini 'yomon qonunlar bilan bog'lagan; iqtisodiy liberallashtirishni taklif qilgan holda ta'riflagan.
Edgar Feige	AQSh	Yashirin iqtisodiyotga "Shaxslar, oilalar yoki korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan va mavjud institutlar tomonidan o'rnatilgan qoidalar va urf-odatlariga rioya qilmaydigan, ulardan chetga chiqadigan, cheklovlardan o'tayotgan, chetga surib qo'yilgan yoki ularga tatbiq qilinmaydigan iqtisodiy faoliyatlardir deb ta'riflagan.
Vito Tanzi	Italiya	Yashirin iqtisodiyotning soliq siyosati va davlat byudjetiga ta'siri sifatida ta'riflagan.
Yu. Latov	Rossiya	Yashirin iqtisodiyotni davlat hisob-kitobidan va nazoratidan tashqarida rivojlanayotgan xo'jalik faoliyati" deb ta'riflagan.
A.K.Bekryashev va I.P.Belozero	Rossiya	Yashirin iqtisodiyotni jinoyatkorona va nojinoiy shakllarga bo'lgan holda ta'riflagan.
I. Xotamov	O'zbekiston	Yashirin iqtisodiyotni qonun-qoidalarni chetlab o'tish orqali yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar deb ta'riflagan.
B.A. Tagayev	O'zbekiston	Yashirin iqtisodiyotni davlat va nodavlat mulklaridan guruh manfaatlari uchun noqonuniy foydalanish sifatida ta'riflagan.
Mualiflik ta'rifi	O'zbekiston	Yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy mazmuni iqtisodiyotning rasmiy tartibga solish qoidalarini qasddan yoki institutsional zaiflik natijasida cheklab o'tadigan, makroiqtisodiy siyosat ta'sirini buzib ko'rsatuvchi hamda raqamli platformalar, naqd pul aylanmasi va norasmiy tarmoqlar uyg'unligida qayta shakllanuvchi ko'p qirrali iqtisodiy munosabatlar majmui

Yuqorida keltirilgan ayrim infratuzilma xususidagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mukinki, yashirin iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlar global va mahalliy miqyosda olib borilgan. Uning asosiy sabablarini yomon qonunlar, soliq siyosati va rasmiy tartib-qoidalarni chetlab o'tish orqali yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar orqali izohlashgan. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot hajmi va uning makroiqtisodiy ta'siri hisob-kitob qilinib, oq, kulrang va qora turlari hamda jinoyatkorona va nojinoiy shakllari ajratilgan. O'zbekistonda esa u davlat va nodavlat mulklaridan guruh manfaatlari uchun noqonuniy foydalanish hamda soliq tizimiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganilgan.

⁷ Malumotlar muallif tomonidan shakllantirilgan.



3-rasm. Inklyuziv rasmiy bandlikka asoslangan fiskal rag'batlantirish mexanizmi⁸

Mazkur inklyuziv rasmiy bandlikka asoslangan fiskal rag'batlantirish mexanizmi zamonaviy mehnat iqtisodiyoti va fiskal siyosat nazariyalarining uyg'unlashuvi asosida ishlab chiqilgan konseptual model hisoblanadi. Modelning nazariy asosi shundan iboratki, mehnat bozori faqat ishchi kuchi taklifi va ish beruvchilar talabi o'rtasidagi oddiy nisbat emas, balki murakkab institutsional muhitda shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Shu sababli, bandlikning rasmiylik va inklyuzivlik darajasi iqtisodiy qarorlarning ikkilamchi natijasi emas, balki bevosita rag'batlar orqali shakllantirilishi mumkin bo'lgan muhim endogen ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Chizmada aks ettirilgan ishchilar tarkibi blokining ilmiy ahamiyati shundaki, u bandlikning heterogen tabiatini hisobga oladi. An'anaviy modellar ishchi kuchini bir xil sifatga ega omil sifatida talqin qilsa, ushbu yondashuvda ishchilar rasmiylik darajasi va ijtimoiy guruhlarga mansubligi bo'yicha farqlanadi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoridagi ishtiroki iqtisodiy emas, balki

⁸ Malumotlar muallif tomonidan shakllantirilgan.

institutsional va fiskal cheklovlar bilan belgilanib kelgan. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv guruhlarining rasmiy bandligi modelda alohida e'tibor qaratiladigan obyekt sifatida tanlangan.

Inklyuziv rasmiy bandlik koeffitsiyenti (IFBK)ni joriy etish ushbu modelning markaziy ilmiy yangiligi hisoblanadi. IFBK korxonada rasmiy mehnat munosabatlari va inklyuziv bandlik darajasini yagona integral ko'rsatkich orqali o'lchash imkonini beradi. Ushbu koeffitsiyent rasmiy bandlikning miqdoriy ko'rsatkichlarini sifat jihatlari bilan birlashtirib, fiskal siyosat vositalariga bevosita bog'lash imkonini yaratadi. Natijada, rasmiy bandlik ilk bor korxonada tanlov funksiyasida mustaqil iqtisodiy o'zgaruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Korxonaning tanlov funksiyasi blokida modelning mikroiqtisodiy mohiyati ochib beriladi. Foydani maksimallashtirishga intiluvchi korxonada uchun an'anaviy sharoitda rasmiy bandlik qo'shimcha xarajat sifatida qabul qilinadi, chunki u soliq va ijtimoiy to'lovlarning oshishiga olib keladi. Taklif etilayotgan modelda esa ushbu mantiq o'zgartiriladi: IFBK oshishi bilan soliq yukining kamayishi korxonada uchun rasmiy va inklyuziv bandlikni kengaytirishni iqtisodiy jihatdan oqilona tanlovga aylantiradi. Shu orqali norasmiy bandlikdan rasmiy bandlikka o'tish majburiy choralar emas, balki foyda maksimallashtirish strategiyasining bir qismi sifatida shakllanadi.

Modelda IFBKga bog'liq soliq imtiyozlari mexanizmi fiskal siyosatning transmissiya kanali vazifasini bajaradi. Foyda solig'i va ijtimoiy soliq stavkalarining IFBK darajasiga qarab differensiallashtirilishi davlatning fiskal siyosatini passiv daromad yig'uvchi instrumentdan faol mehnat bozori regulyatoriga aylantiradi. Bu jarayonda fiskal rag'batlar orqali ijobiy tashqi samaralar ichkilashtiriladi, ya'ni rasmiy bandlikdan jamiyat miqyosida olinadigan foyda korxonada darajasida iqtisodiy rag'bat shaklida aks ettiriladi.


Chizmada ko'rsatilgan makroiqtisodiy natijalar blokining ilmiy asoslanganligi shundan iboratki, u mikro darajadagi qarorlar agregatsiyasi orqali shakllanadigan tizimli samaralarni ifodalaydi. Rasmiy bandlikning oshishi soliq bazasining kengayishiga, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari barqarorligining mustahkamlanishiga va davlatning ijtimoiy xarajatlarning qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga, inklyuziv mehnat bozorining rivojlanishi mehnat daromadlari tengsizligini kamaytirib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun inson kapitalining samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Modelning muhim jihatlaridan yana biri uning qayta aloqa mexanizmidir. Makro darajada erishilgan ijobiy natijalar mehnat bozori institutsional muhitini yaxshilaydi, bu esa keyingi davrda IFBKning yanada oshishiga sharoit yaratadi. Natijada, fiskal rag'batlantirish va rasmiy bandlik o'rtasida o'z-o'zini kuchaytiruvchi ijobiy sikl shakllanadi. Bu holat modelni qisqa muddatli fiskal choralar yig'indisi emas, balki uzoq muddatli institutsional rivojlanish mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, berilgan konseptual chizma inklyuziv rasmiy bandlikni korxonada tanlov funksiyasiga endogen ravishda kiritish orqali fiskal siyosat va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yangi nazariy darajada asoslab beradi. Ushbu model O'zbekiston sharoitida norasmiy bandlikni qisqartirish, inklyuziv ish o'rinlarini kengaytirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan

muhim yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot dinamikasi tahlili hamda uning ishsizlik darajasiga ta’siri” deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatda yashirin iqtisodiyotning o‘shir sur’ati, hajmi va tuzilishi tahlil qilingan. Ushbu bobda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sir mexanizmlari, salbiy ta’siri va mehnat bozoridagi noaniqliklar o‘rganilgan. Shuningdek, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha yashirin iqtisodiyotning farqlanishi, uning turli shakllari va ularning ishsizlikka ta’siri ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi hamda mavjud iqtisodiy siyosat va choralar orqali yashirin iqtisodiyotning salbiy ta’sirini kamaytirish yo‘llari nazariy jihatdan yoritiladi.



4-rasm. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki maxsulot hamda tarmoqlardagi ulushi, foizda⁹

O‘zbekiston iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi sektorlarga qarab sezilarli farq ko‘rsatadi. Xususan, xizmatlar va qurilish sohaslarida yashirin iqtisodiyotning ulushi ancha yuqori bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyatning muhim tarmoqlari hisoblanadi. Ushbu sohalarda yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatining rasmiylashtirilmagligi, soliq va tartibga solishdagi qiyinchiliklar bilan izohlash mumkin. Bunday holat, o‘z navbatida, iqtisodiy siyosatning samaradorligini kamaytiradi va davlat byudjetining tushumlarini pasaytiradi, shuningdek, raqobat muhitining buzilishiga olib kelish ehtimoli mavjud.

Xizmatlar sohasidagi yashirin iqtisodiyot ulushi 2010 yildan boshlab 14 foiz atrofida doimiy ravishda yuqori darajada qolmoqda. Bu ko‘rsatkich ushbu tarmoqdagi faoliyatning ko‘plab kichik va yakka tartibdagi subyektlar tomonidan amalga oshirilishi hamda bu faoliyatning ko‘pincha rasmiy nazorat va soliqdan qochish shaklida yuritilishi bilan bog‘liq. Buning natijasida, xizmatlar sohasi iqtisodiyotdagi yashirin faoliyatning asosiy maydonlaridan biriga aylangan va bu sohada shaffoflikni

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi

oshirish, qonuniy tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Qurilish sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi o'tgan yillardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Dastlab, 2010 yilda qurilish sohasidagi yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lib, 14,6% ni tashkil etgan, ammo keyingi yillarda bu ko'rsatkich asta-sekin kamayib, 2024 yilda 10% ga tushgan. Ushbu pasayish davlatning qurilish sektoridagi nazoratni kuchaytirishi, rasmiylashtirish siyosatining samaradorligi, shuningdek iqtisodiyotni rasmiylashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tashabbuslar bilan bog'liq. Biroq, qurilish sohasidagi yashirin iqtisodiyotning hali ham sezilarli darajada qolishi iqtisodiyotdagi muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

5-jadval

2010–2025-yillarda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot va ishsizlik indikatorlari o'zgarishi¹⁰

Yillar	Kuzatilmaydigan iqtisodiyot		Ishsizlar soni, ming kishi
	Norasmiy iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi, %	Yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi, %	
2010	34,2	7,6	658,2
2011	38,4	7,6	622,4
2012	36,7	7,3	626,3
2013	36,5	8,0	639,7
2014	36,8	8,1	687
2015	38,9	7,6	709,4
2016	40,6	7,7	724
2017	38,6	7,0	837
2018	34,7	6,9	1369
2019	31,5	7,4	1335
2020	30,8	6,5	1561
2021	29,7	7,2	1442
2022	27,2	7,4	1333
2023	26,7	7,8	1024
2024	26,5	7,9	836
2025	19	7,9	745

Keltirilgan ma'lumotlar 2010–2025-yillar oralig'ida kuzatilmaydigan iqtisodiyot (norasmiy va yashirin sektorlar) hamda ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi. Dastlabki yillarda norasmiy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi yuqori bo'lib, 2010-yilda 34,2% dan 2016-yilda 40,6% gacha oshgan. Shu davrda yashirin iqtisodiyot ulushi nisbatan barqaror (7–8%

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

oralig'ida) saqlangan. Bu holat iqtisodiy faoliyatning sezilarli qismi rasmiy statistikadan tashqarida amalga oshirilganini va mehnat resurslarining katta qismi norasmiy sektorda band bo'lganini ko'rsatadi.


2017-yildan boshlab kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining izchil qisqarish tendensiyasi kuzatiladi: 2018-yilda 34,7% dan 2025-yilda 19% gacha pasaygan. Bu davrda yashirin iqtisodiyot ulushi katta o'zgarishsiz qolgan bo'lsa-da, umumiy norasmiy sektorning qisqarishi iqtisodiyotni legallashtirish, soliq bazasini kengaytirish va institutsional islohotlar bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, ishsizlik ko'rsatkichlari 2017–2020-yillarda keskin oshib, 2020-yilda 1561 ming kishiga yetgan, keyinchalik esa bosqichma-bosqich kamayib, 2025-yilda 745 ming kishini tashkil etgan.

2010–2025 yillar davomida yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi hamda ishsizlar soni dinamikasi tahlili ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasida muayyan darajada teskari va murakkab bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, 2010 yilda yashirin iqtisodiyot ulushi 7,6 foizni tashkil etgan holda ishsizlar soni 658,2 ming kishiga teng bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 7,9 foizga yetganiga qaramay, ishsizlar soni 745 ming kishigacha kamaygan. Ayniqsa, 2018–2020 yillarda ishsizlar sonining keskin ortishi (1369–1561 ming kishi) pandemiya va mehnat bozori beqarorligi bilan izohlanadi, biroq shu davrda yashirin iqtisodiyot ulushining nisbatan pasayishi kuzatilgan. Bu holat yashirin iqtisodiyotning qisqarishi avtomatik ravishda ishsizlikning kamayishiga olib kelmasligini, aksincha, iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektorga o'tishi jarayonida qisqa muddatli bandlik muammolari yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli tendensiyada yashirin iqtisodiyotning yuqori darajasi mehnat bozorining institutsional zaifligi, norasmiy bandlikning kengayishi hamda barqaror ish o'rinlari yetishmasligi bilan bog'liq ekanligi namoyon bo'ladi. Demak, yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, uni baholashda makroiqtisodiy barqarorlik, mehnat bozori transformatsiyasi va institutsional islohotlar omillarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.

Mazkur jarayonlar Dual iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan izohlanganda, norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshganini ko'rsatadi. Dastlab norasmiy sektor qisqargan davrda ishsizlikning ortishi mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda esa rasmiy sektorning kengayishi natijasida bandlik darajasi tiklanib, ishsizlik kamaygan. Bu esa iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi va zamonaviy sektor ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida, yashirin iqtisodiyotning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar yoritilgan. Ushbu bobda rasmiy ish o'rinlarini kengaytirish va mehnat bozorini tartibga solish, soliq va huquqiy tartibotlarni takomillashtirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, aholiga axborot va tashviqot ishlarini olib borish hamda hududlar bo'yicha nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish kabi yo'nalishlar batafsil ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot subyektlarini rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish va uning ishsizlik darajasiga ta'sirini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar nazariy jihatdan asoslangan.



6-rasm. Migratsiyadan qaytgan shaxslar uchun institutsional-iqtisodiy transformatsiya modeli¹¹

Migratsiyadan qaytgan shaxslar tomonidan to'plangan inson kapitali va moliyaviy resurslarni rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalash jarayoni O'zbekiston sharoitida dolzarb institutsional-iqtisodiy masala sifatida shakllanmoqda. So'nggi yillarda respublikada mehnat migratsiyasi oqimlari barqaror yuqori darajada saqlanib,

¹¹ Malumotlar muallif tomonidan tuzilgan

mamlakatga qaytib kelayotgan fuqarolar iqtisodiy faol aholining muhim tarkibiy qismini tashkil etmoqda. Rasmiy statistik baholashlarga ko‘ra, 2018–2023 yillarda mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslar soni yiliga o‘rtacha 450–550 ming nafar atrofida bo‘lib, ularning iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushi 7–9 foizni tashkil etgan. Qaytgan migrantlarning iqtisodiy xulq-atvori tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning qariyb 50–55 foizi mamlakatga qaytgach mustaqil daromad manbai yaratishga intiladi, biroq ushbu faoliyatning katta qismi rasmiy iqtisodiyot doirasidan tashqarida amalga oshiriladi. Bu holat 6-rasmda aks ettirilgan sxemaning boshlang‘ich bosqichida qaytgan migrantlar tomonidan to‘plangan inson kapitali va moliyaviy resurslarning “potensial, ammo rasmiylashmagan” holatini ifodalaydi.

